

O‘ZBEKISTONDA QORA PESHONALI QARQUNOQNING TARQALISHI VA EKOLOGIYASI

Xurshidabonu Farmonova Anvar qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti

ANOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekistonda qora peshonali qarqunoqning tarqalishi va ekologiyasi haqida bir qancha ma’lumotlar keltirilgan. Ikki yil mobaynida ushbu qush turini Qashqadaryo viloyati Kitob tumani sharoitida tarqalishi, ekoogiyasi, uyalashi, ko‘payish muddatlari o‘rganildi. Hamda ularning ahamiyati-nihoyatda foydali qush ekanligi xulosa qilindi.

Kalit so‘zlar: shtangensirkul, ruletka, sevka, “chok-chok”, Omonqoton, Brodi.

DISTRIBUTION AND ECOLOGY OF THE LANIUS MINOR IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article presents a number of information about the spread and ecology of the Lanius Minor in Uzbekistan. For two years, the distribution, ecoogias, nesting, breeding periods of this bird species in the conditions of the book District of the Kashkadarya region were studied. And it was concluded that their importance is an incredibly useful bird.

Keywords: shtangensirkul, roulette, sevka, “chok-chok”, Omonqoton, Brodi.

KIRISH

Qushlarning odamning xo‘jalik manfatlari nuqtai nazaridan salbiy faoliyati, foydali yovvoyi hayvonlar va yovvoyi holda o‘suvschi o‘simliklari qirishi, oziqlanishda raqobat qilishi, uyalishi va xokazolarda namoyon bo‘ladi. Biroq biror–bir qushni mutlaqo zararli yoki foydali deyishga asosimiz yo‘q. Ular ma’lum sharoitda va ma’lum vaqtda faqat foydali yoki faqat zararli bo‘lishi mumkin.

Qushlardan oqilona foydalanishi (birinchi navbatda ular sonini yetarli darajaga yetkazish yo‘li bilan) kimyoviy zaharli moddalardan foydalanishi zaruratini sezilarli darajada pamaytirish imkonini beradi. Hozirgi kunda kimyoviy zaharli moddalardan foydalanishning salbiy oqibatlari ko‘pchilikka ma’lum.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, qushlarning xo‘jalik ahamiyati masalasi u yoki bu sharoitda ularning hayotini o‘rganish, ularning biologiyasi va yashash

sharoitlarini bilish asosida qarab chiqilishi kerak.

Ornitologik adabiyotlarda olato'g'anoq, qora peshonali qarqunoq, uzun dumli qarqunoqning tarqalishi va ekologiyasi bo'yicha ayrim ma'lumotlar mavjud. Qarqunoqlarning uchib kelish muddatlari ularning turli uyalash joylarida turlicha. Kutilganidek, janubiy mintaqalarda ular shimoliy mintaqalarga nisbatan ertaroq uchib keladi. A.K.Sagitov va S.B.Bakayevlar [5] qarqunoqlarning uchib kelishi ko'pincha meteorologik omillarga, birinchi navbatda havoning harorati va yog'ingarchilikka bog'liq bo'lishini ta'kidlaydilar. Ma'lumki, bahor kech kelganda umuman qushlarning uchib kelishi, xususan qarqunoqlarning uchib kelishi ham kechikadi [2]. Qarqunoqlarning uyalash ekologiyasi bo'yicha ma'lumotlarni keltiradi. Muallifning kuzatishlariga ko'ra Panjikent atroflarida qarqunoqlarning uchib o'tishi va uchib kelishi 1960 yil 28 aprelda va 1962 yil 2 mayda qayd etilgan. A.K.Sagitov va N.A.Allanazarovalarning [1] ma'lumotlariga ko'ra qarqunoqlarning bahorgi uchib kelishi martning oxiri va aprelning boshlariga to'g'ri keladi.

Tuxumdan polaponlar bir vaqtda chiqmasdan ular to'liq tuxumdan chiqishi uchun 2-3 kun o'tadi. N.A.Allanazarova [1] diplom ishida qarqunoqlarning polaponlarini boqish jadalligi to'g'risida ma'lumotlar keltiradi. Buning uchun kuzatishlar Omonqo'ton o'rmon xo'jaligi hududida olib borilgan. N.A.Allanazarovanning [1] ta'kidlashicha, 8 soat yoki 480 daqiqa davomida urg'ochi qush 387 daqiqa uyada bo'ldi, erkagi oziq bilan 9 marta uchib keldi. Uning asosiy qismini urg'ochisi yegan bo'lsa, kamroq qismini polaponlariga berdi. Polaponlarini boqish butun kuzatish vaqti davomida deyarli bir tekis bordi. Faqatgina kechga yaqin polaponlarini boqish jadalligi bir oz oshdi. Vizual kuzatishlarga ko'ra polaponlari uchun ozuqa bo'lib, temirchaklar, kapalak qurtlari, o'rgimchaklar, chirildoqlar, qo'ng'izlar, xon qizi va pashshalar xizmat qiladi. Lekin barcha hasharotlar orasida kapalak qurtlari va temirchaklar asosiy o'rnini egallaydi. [4]

MATERIAL VA METODLAR

To'plangan ma'lumotlar 2022-2023 yillar davomida iyun oyining boshigacha o'rganilib, tahlil qilindi. Tadqiqotdan to'plangan asosiy maqsad O'zbekistonda qora peshonali qarqunoqning tarqalishi va ekologiyasini o'rganish va tashkil etish.

Barcha topilgan uyalarda uyaning diametri, uyaning balandligi lineyka yordamida, uyalarning yerdan balandligi maxsus o'lchov asbobi ruletka yordamida o'lchanadi. Uyadagi tuxumlarga qalam bilan belgilar quyilib, ularning paydo bo'lish muddatlari aniqlanadi. Tuxumlarning og'irligi 0,01 gr aniqlikda dorixona tarozilarida o'lchandi. Tuxumlarning uzunligi va eni shtangensirkul bilan 0,01mm aniqlikda o'lchandi. Olingan natijalar doimiy ravishda kundalik daftariga qayd qilib boriladi. Tuxumlarning suv yo'qotishini aniqlash maqsadida ularning og'irliklari doimiy ravishda o'lchanib boriladi. Tuxumlarning barcha o'lchamlari umumiy qabul qilingan

usullar va formulalar yordamida matematik qayta ishlandi.

Tuxumlardan ochib chiqqan poloqonlarning oyoqlariga rangli iplar bog‘lab belgilandi va ularning massasini oshishi, tanasi ayrim qismlarining o‘shish sur‘atini aniqlash maqsadida kunora 0,01 gr aniqlikda dorixona tarozisida va 0,01 mm aniqlikda shtangensirkul yordamida o‘lchanib borildi. Polaponlarining o‘shish jadalligi Brodi formulasi bo‘yicha aniqlanadi.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Qora peshonali qarqunoq *Lanius minor* Gmelin chumchuqsimonlar Passeriformes turkumining qarqunoqlar Laniidae oilasiga kiradi.

Qora peshonali qarqunoqning orqa tomoni kulrang, qorin tomoni oq – rangda bo‘lib, bir oz ayniqsa yon tomonlarida pushti ranglar aralashgan: qanotlari qora bo‘lib, ularda oq «oynachalari» bor. Boshining tepa qismi, ensasi, bo‘yni, orqasi, dum osti patlari kulrang, faqatgina boshining tepa qismining chegarasi, yuganchasi va ko‘z atrofidagi chiziqlari hamda quloqlari qoplab turuvchi patlari qora rangda, yelka qismidagi patlari kulrang, eng uzun patlarining uchi oqish bo‘ladi.

O‘zbekistonda hamma joyda uchraydi. Ayniqsa tog‘larda keng bargli o‘rmonlarida, masalan, Chotqol, Ucham, Ko‘ksuv tog‘larida ko‘p sonli hisoblanadi. Tog‘ oldi qishloqlarida: Parkent, Vrich–Mulla, Og‘alik, Omonqo‘tonda tez–tez uchrab turadi. Bizning kuzatishlarimizga ko‘ra qora peshonali qarqunoq Kitob tumanida daraxt va butalar o‘sadigan tog‘ oldi zonalarini afzal ko‘radi va bu yerlarda yaxshi yoritilgan tog‘ etaklarini tanlaydi.

Qora peshonali qarqunoqlar 5-7kun mobaynida uya qurib bitkazadi. Uyalarni yangi uzilgan o‘tlardan beda, itbinafsha, burchoq, turli noxatlar, bahorgi qirqbogim, mayda bargli dastarboshlardan quradi. Biz tomonimiz 20 ta uya topilib, shundan 11 tasi yunon yongogida yerdan 5-10 m balandlikda, 4 tasi piramida terakda yerdan 6-8 m balandlikda, 5 tasi tol daraxtida yerdan 10 m balandlikda joylashgan edi.

Uya qurib bitkazilgandan keyin may oyining o‘rtalaridan iyun oyigacha tuxum qo‘yish boshlanadi. Tuxumlar ovalsimon yumaloqlashgan, poyonak qismida och jigarrang dog‘lari bo‘lib, 4tadan 7tagacha qoyiladi.

Qora peshonali qarqunoq tuxumlarining o‘lchamlari va biometrik ko‘rsatkichlari.

№	O‘lchanadigan kattalik	n	x	σ	Cv	m	Cs
1	Uzunligi(mm)	16	23.5	1.67	7.10	0.41	1.74
2	Diametri(mm)	16	17.6	1.42	8.06	0.35	1.98
3	Massasi(gr)	16	3.5	0.92	26.2	0.23	6.5

Iyunning ikkinchi yarmida qora peshonali qarqunoqning polaponlari tuxumdan chiqadi. Bizning kuzatishlarimizga ko'ra polaponlar tuxumdan chiqqandan so'ng ham urg'ochi qarqunoq uyani tark etmaydi.

Biz kuzatgan tuxumdan ochib chiqqan polaponlar butunlay nimjon. Ko'zlari va eshitish teshiklari yopiq, terisi yupka, yalang'och, qizil rangda bo'ladi. Polaponlar uyada rivojlanishi davomida tanasi birlanchi og'irligida nisbatan 10.2 barobar oshadi, masalan, yangi tuxumdan chiqqan polaponning og'irligi 3,6 g, uchirma polaponlar 37,0 g bo'ldi. Polaponlar 14-15 kun uyada rivojlanadi. Keyin esa bir shoxdan ikkinchisiga qo'nib otish qobiliyatiga ega bolishadi. Erkak qarqunoq tuxum bosayotgan urg'ochisini qo'ng'izlar, chigirtkalar, pora qo'ng'izlar, qandalalar singari hasharotlar va ularning qurtlari bilan boqadi.

Polaponlarini faqat kichik hasharotlar bilan boqadi. Bunda ozuqaning ko'p qismini urg'ochisi yeydi, kamroq qismini esa polaponlariga beradi. Polaponlarini boqishda ikkala qush ham ishtirok etadi, lekin erkagi ko'proq oziq keltiradi.

XULOSA

Qora peshonali qarqunoq hasharotlar bilan oziqlanadi va bu hasharotlarning ko'pchiligi qishloq xo'jalik ekinlarining zarakunandalari hisoblanadi. Hisob – kitoblarga ko'ra bir juft qora peshonali qarqunoqlar uya davri davomida har xil qo'ng'iz va zarakunandalari 23 ming donasini qiradi. Ushbu hasharotlarini qirib qishloq xo'jalik ekinlarini samarali ravishda saqlab qolib dehqonlarga foyda keltiradi, shuning uchun undan zarakunanda hasharotlarga qarshi biologik kurashda bu qushlardan foydalanish uning biologiyasini yanada chuqurroq o'rganishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Алланазарова Н.А. Материалы по экологии г гнездования сорокопутов. Дипломная работа. Самарканд, 1979. 58 с.
2. Богданов А.Н. Птицы бассейна реки Зеравшан. Труды инст-та зоологии и паразитологии АНУзССР, Ташкент, 1956. 163 с.
3. Богданов О.П. Животные Узбекистана. Ташкент, 1962. 316 с.
4. Сагитов А.К. Семейство сорокопутовые. Птицы Узбекистана Ташкент: Фан, 1995. С; 83-102.
5. Сагитов А.К., Бакаев С.Б. Экология гнездования массовых видов птиц юго-западного Узбекистана. Ташкент: Фан, 1980. 136 с.
6. Сагитов А.К. Птицы Узбекистана. – Ташкент, 1990. Т.2. 453